

# INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 4  
ISSUE 1

2024

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
ТОМ-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY  
VOLUME-4, ISSUE-1



TOSHKENT - 2024



# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2024-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

**MIRZAYEV IBODULLA**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**MIRZAYEV IBODULLA**  
DSc, professor (Uzbekistan)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ  
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

**JABBOROV NURBOY**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**ЖАББОРОВ НУРБОЙ**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**JABBOROV NURBOY**  
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

**Muhiddinov Muslihiddin**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Sirojiddinov Shuhrat**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Rasulov Ravshanxo'ja**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dilorom Salohiy**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Sodiqov Qosimjon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Mark Tutan**  
f.f.d., professor (Fransiya)  
**Binnatova Almaz Ulvi**  
f.f.d., professor (Ozarbayjon)  
**To'xlijev Boqijon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Shodmonov Nafas**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Ramiz Asker**  
f.f.d., professor (Ozarbayjon)  
**Yo'ldoshev Qozoqboy**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Jo'raqulov Uzoq**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Funda Toprak**  
f.f.d., professor (Turkiya)  
**Nabiulina Guzal**  
f.f.d., professor (Tatariston)  
**Yusupova Dilnavoz**  
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)  
**Rahim Ibrohim**  
f.f.d., professor (Afg'oniston)  
**Suvonova Jumagul**  
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)  
**Asadov Maqsud**  
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)  
**Sultanov Tulkin**  
PhD, dotsent (O'zbekiston)  
**Mirzayev Rahmatilla**  
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)  
**Muhitdinova Badia**  
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)  
**Ruzmanova Roxila**  
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)  
**Narziyeva Ma'mura**  
kotib, o'qituvchi (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

**Toshqulov Abduqodir**  
i.f.d., (O'zbekiston)  
**Xalmuradov Rustam**  
t.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Eshqobil Shukur**  
O'zbekiston Respublikasida xizmat  
ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir (O'zbekiston)  
**To'xtasinov Ilhom**  
p.f.d. (O'zbekiston)  
**Rixsiyeva Gulchehra**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Benedek Peri**  
f.f.d., professor (Vengriya)  
**Ko'chiyev Ismat**  
publisist, O'zbekiston va Belorussiya  
yozuvchilar uyushmasi a'zosi (O'zbekiston)  
**Olimov Karomatillo**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dadaboyev Hamidulla**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Aitpayeva Gulnora**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Rahmonov Nasimxon**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Shomusarov Shorustam**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Dyu Rye Andre**  
f.f.d., professor (Fransiya)  
**Pervin Chapan**  
f.f.d., professor (Turkiya)  
**Hamroyev Juma**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Ibrohimov Elchin**  
f.f.n., professor (Ozarbayjon)  
**Jo'rayev Shokirjon**  
F-m.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Hasanov Shavkat**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Nurullo Oltoy**  
f.f.n., (Afg'oniston)  
**Xalliyeva Gulnoz**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Alim Labib**  
f.f.d., professor (Afg'oniston)  
**Nodira Afoqova**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)  
**Aftondil Erkinov**  
f.f.d., professor (O'zbekiston)

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Мухиддинов Муслихиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Сирожиддинов Шухрат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Расулов Равшанхужа**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дилором Салохий**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Содиқов Косимжон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Марк Тутан**  
д.ф.н., профессор (Франция)  
**Биннатова Алмаз Улви**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
**Тухлиев Бокижон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шодмонов Нафас**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Рамиз Аскер**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)  
**Юлдашев Казакбай**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Журакулов Узок**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Фунда Топрак**  
д.ф.н., профессор (Турция)  
**Набиуллина Гузаль**  
д.ф.н., профессор (Татаристан)  
**Юсупова Дилнавоз**  
д.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Рахим Иброхим**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)  
**Сувонова Жумагул**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Асадов Максуд**  
д.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Султанов Тулкин**  
PhD, доцент (Узбекистан)  
**Мирзаев Рахматилла**  
к.ю.н., доцент (Узбекистан)  
**Мухитдинова Бадиа**  
к.ф.н., доцент (Узбекистан)  
**Рузманова Рохила**  
доц., отв. секретарь (Узбекистан)  
**Нарзиева Мамура**  
секретарь, преподаватель (Узбекистан)

## НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

**Тошқулов Абдуқодир**  
к.э.д., (Узбекистан)  
**Халмуродов Рустам**  
д.т.н., профессор (Узбекистан)  
**Эшқобил Шукур**  
Заслуженный работник культуры  
Республики Узбекистан, поэт (Узбекистан)  
**Тухтасинов Илхам**  
д.п.н. (Узбекистан)  
**Рихсиева Гулчехра**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Бенедек Пери**  
д.ф.н., профессор (Венгрия)  
**Кочиев Исмаи**  
Публицист, член Союза писателей  
Узбекистана и Беларуси (Узбекистан)  
**Олимов Кароматилло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дадабаев Хамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Айтпаева Гулнора**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Рахмонов Насимхон**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Шомусаров Шорустам**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Дю Рье Андре**  
д.ф.н., профессор (Франция)  
**Первин Чапан**  
д.ф.н., профессор (Турция)  
**Хамроев Джума**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Иброхимов Элчин**  
к.ф.н., профессор (Азербайджан)  
**Джураев Шокирджон**  
д.ф.-м. н., профессор (Узбекистан)  
**Хасанов Шавкат**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Нурулло Олтой**  
к.ф.н., (Афганистан)  
**Халлиева Гулноз**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Алим Лабиб**  
д.ф.н., профессор (Афганистан)  
**Ноди́ра Афокова**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)  
**Афтондил Эркинов**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)



## EDITORIAL BOARD:

**Mukhiddinov Muslikhiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)  
**Sirojiddinov Shukhrat**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)  
**Rasulov Ravshankhuja**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)  
**Dilorom Salokhiy**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)  
**Sodikov Kosimjon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Mark Tutan**  
*Doc. of philol. scien., prof. (France)*  
**Binnatova Almaz Ulvi**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)*  
**Tukhliev Bokijon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Shodmonov Nafas**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Ramiz Asker**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)*  
**Yuldoshev Kozokboy**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Jurakulov Uzok**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Funda Toprak**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)*  
**Nabiulina Guzal**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)*  
**Yusupova Dilnavoz**  
*Doc. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Rakhim Ibrokhim**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)*  
**Suvonova Jumagul**  
*Cand. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Asadov Makhsud**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Sultanov Tulkin**  
*PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Mirzayev Rahmatilla**  
*Cand. of legal scien., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Mukhitdinova Badia**  
*Cand. of philol. scien., assoc. prof. (Uzbekistan)*  
**Ruzmanova Rokhila**  
*Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)*  
**Narziyeva Ma'mura**  
*Secretary, teacher (Uzbekistan)*

## SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

**Toshkulov Abdukodir**  
Doc. of econ. scien., (Uzbekistan)  
**Khalmuradov Rustam**  
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)  
**Eshqobil Shukur**  
Honored Worker of Culture of the  
Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)  
**Tukhtasinov Ilkhom**  
Doc. of pedag. scien. (Uzbekistan)  
**Rikhsieva Gulchekhra**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Benedek Peri**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)*  
**Kochiyev Ismat**  
*Publicist, member of the Writers' Union of Uzbekistan  
and Belarus (Uzbekistan)*  
**Olimov Karomatullo**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Dadaboev Khamidulla**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Aitpaeva Gulnora**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Rakhmonov Nasimxon**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Shomusarov Shorustam**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Dyu Rye Andre**  
*Doc. of philol. scien., prof. (France)*  
**Pervin Chapan**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)*  
**Khamroev Juma**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Ibrokhimov Elchin**  
*Cand. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)*  
**Juraev Shokirjon**  
*Doc. of phys.-math. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Khasanov Shavkat**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Nurullo Oltoy**  
*Cand. of philol. scien., (Afghanistan)*  
**Khallieva Gulnoz**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Alim Labib**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)*  
**Nodira Afokova**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*  
**Aftondil Erkinov**  
*Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)*

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## AZIZ MUSHTARIY!

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash ro'g'risida"gi PQ-4865-son Qarorida "Alisher Navoiy asarlarida teran ifoda topgan milliy va umuminsoniy g'oyalarning jahon tamaddunida tutgan o'rnini hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarini tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini nazarda tutib, shuningdek, ulug' shoir va mutafakkirning adabiy-ilmiy merosini mamlakatimizda va xalqaro miqyosda yanada chuqur tadqiq qilish va keng targ'ib etish..." lozimligi alohida ta'kidlangan.*

*Bu filologiya ilmi va navoiyshunoslik, xususan, adabiy ta'sir, qiyosiy adabiyotshunoslik, matnshunoslik va tarjima masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar zimmasiga jahonning ilg'or texnologiyalari, nazariy g'oyalariga hamohang ilmiy tadqiqotlar yaratish vazifasini yuklaydi. Olimlarimizning ilmiy salohiyati, innovatsion g'oyalarini jahonda targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro nufuzga ega ushbu jurnal ta'sis etildi.*

*"Alisher Navoiy" deb nomlangan ushbu jurnalda navoiyshunoslik, Navoiy adabiy merosining umumjahon tamaddunida tutgan o'rni va adabiy ta'sir masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilarni o'z maqolalari bilan ishtirok etishga taklif qilamiz.*

**TAHRIRIYAT**

## УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!

*В Постановлении №ПП-4865 Президента Республики Узбекистан Шавката Миромоновича Мирзиёева "О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои" особо отмечается "огромное значение произведений Алишера Навои, в которых нашли глубокое отражение национальные и общечеловеческие ценности, в развитии мировой культуры, их роль в повышении интеллектуального потенциала и духовно-нравственном воспитании молодого поколения, а также в целях обеспечения дальнейшего изучения и популяризации литературно-научного наследия великого поэта и мыслителя..."*

*Это ставит задачи перед филологами, навоиоведами, исследователями литературного влияния, сравнительного литературоведения, текстологии и вопросов перевода создания научных исследований, соответствующих передовым мировым технологиям и теоретическим идеям. В целях пропаганды и продвижения научного потенциала и инновационных идей наших ученых учреждён данный международный журнал.*

*Приглашаем публиковать свои статьи в нашем журнале "Алишер Навои" отечественных и зарубежных исследователей, занимающихся изучением жизни и творчества литература Навои, его роли в мировой литературе, проблемами литературного влияния и сравнительной поэтикой.*

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИИ**

## DEAR READER!

*Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "On the celebration of the 580th anniversary of the great poet and thinker Alisher Navoi" No PP-4865 given the invaluable role of cultivating high moral qualities in their hearts, as well as the need to further study and widely promote the literary and scientific heritage of the great poet and thinker in our country and internationally .... "*

*This puts the task of researchers in the field of philology and Navoi studies, in particular, literary influence, comparative literature, textual studies and translation, in creating scientific research in harmony with the world's advanced technologies and theoretical ideas. This internationally renowned journal was established to promote and support the scientific potential and innovative ideas of our scientists around the world.*

*In this magazine, called "Alisher Navoi", we invite researchers who are interested in Navoi studies, the role of Navoi's literary heritage in world civilization and literary influence to participate with their articles.*

**EDITORIAL**

## NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. **Dilorom Salohiy**  
NIZOMIY VA NAVOIY DOSTONLARIDA MAJOZIY TASVIR NAMUNASI.....9
2. **Nurboy Jabborov**  
TURKIY RUHIYAT – ALISHER NAVOIY IJOD KONSEPSIYASINING ASOSI.....15
3. **Ozoda Tojiboyeva**  
ALISHER NAVOIY IJODINING ROSSIYADAGI MANBALARI VA TAVSIFLARI.....23
4. **Sherxon Qorayev**  
TEMURIY SHAHZODA MUHAMMAD SULTON VA ALISHER NAVOIY.....30

## MA'RIFAT YOG'DUSI

5. **Serpil Soydan**  
NEVÂYÎ'NIN FEVÂYIDÜ'L-KIBER DÎVÂNINDA ÂKIBET / HALAS / RAHM / TEMENNA / VEFA REDIFLI GAZELLER ÜZERINE.....36
6. **Martaba Melikova**  
ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВОИ.....44

## NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

7. **Funda Toprak**  
BEDÂYÎÜ'L BÎDÂYE'DE MİTOLOJİK UNSURLAR ('ANKÂ-KÂF-SİMÜRG VE EJDERRA).....52
8. **Shahlo Rahmonova**  
NAVOIY LIRIKASIDA IJTIMOY FAOL AYOL OBRAZI VA POKIZA ISHQ MASALASI.....61
9. **Farida Karimova**  
ALISHER NAVOIYNING "BADOYE' UL-BIDOYA" DEVONI DEBOCHASI ALOHIDA ADABIY HODISA SIFATIDA.....71

## ILM, OLAM VA OLIM

10. **Elmurod Nasrullayev**  
NAVOIYGA DOIR TARIXIY MANBALAR VA ULARNING ILK O'RGANILISHI MASALALARI.....79
11. **Шоира Темирова, Гулбахор Хаджикурбанова, Саодат Юлдашева**  
ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ И ДОСТИЖЕНИЯ ТВОРЧЕСТВА АЛИШЕРА НАВОИ.....87

## TAQRIZ, TALQIN VA TAHLIL

12. **Ibrohim Haqqul**  
SAKINAMEH IS A POEM OF LIFE AND JOY (*Introduction to the book "Sakinameh: history and poetics" by Professor Maksud Asadov*).....92
13. **Ozoda Tojiboyeva**  
ELLARNI BIRLASHTIRGAN SHOIR (*Turkiya davlati Bursa shahridagi O'zbek tili va madaniyati markazi ochilishi va "Alisher Navoiy va XXI asr" xalqaro konferensiyasi bo'yicha*).....95

## NAVOIY POETIKASI

### 14. Maysara Eshniyazova

ALISHER NAVOIYNING “SIROJ UL-MUSLIMIN” ASARIDA DINIY-TASAVVUFIIY  
G‘OYALARNING POETIK IFODASI.....101

## NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

### 15. Hamidulla Dadaboyev

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA IFODALANGAN BOSH VA ICH KIIYIM  
NOMALARINING HOZIRGI TURKIY TILLARDA VOQELANISHI.....117

### 16. Ma’mura Zohidova

O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARDA QO‘LLANGAN AYRIM SO‘ZLAR  
IZOHI.....124

## NAVOIY VA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

### 17. Gulnoza Xoldorova

ALISHER NAVOIY DIDAKTIK QARASHLARINING TURKIY ILDIZLARI.....129





**Ozoda TOJIBOYEVA,**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek adabiyoti tarixi kafedrası

E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

## ALISHER NAVOIY IJODINING ROSSIYADAGI MANBALARI VA TAVSIFLARI

**For citation:** Ozoda Tojiboyeva. SOURCES AND DESCRIPTIONS OF ALISHER NAVOI'S CREATION IN RUSSIA. Alisher Navoi. 2024, vol. 4, issue 1, pp. 23-29

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11507899>

### ANNOTATSIYA

Alisher Navoiyning asarlari dunyo fondlarining eng nodir nusxalari sifatida saqlanadi. Bugun dunyodagi eng nufuzli kutubxonalarda, turli fondlarda Navoiy asarlarining mo'tabar nusxalari saqlanishi fan olamida ma'lum. Rossiya kutubxonalaridagi shoir ijodiga tegishli qo'lyozmalar ham o'zining qadimiyligi bilan muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiy asarlarining Rossiya kutubxonalariga borib qolish tarixi va ularni ilk bora tavsiflagan, fanga ma'lum qilgan olimlarning faoliyati haqida ma'lumot beriladi. Bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan mazkur faoliyatda ishtirok etgan olimlarning tadqiqotlari tahlilga tortiladi. Zero, mazkur manbalar fanda Navoiy davriga yaqinligi, qadimiyligi muhim sanalib, ilmiy-tanqidiy matnlar uchun asos vazifasini o'tagan.

**Kalit so'zlar:** qo'lyozma manba, fond, kutubxona, tavsif, katalog.

**Озода ТАДЖИБАЕВА,**

доктор философски (PhD) филологических наук, доцент

Ташкентский государственный имени Алишера Навои

Университет узбекского языка и литературы

Кафедра истории узбекской литературы

E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

## ИСТОЧНИКИ И ОПИСАНИЯ ТВОРЧЕСТВ АЛИШЕРА НАВОИ РОССИИ

### АННОТАЦИЯ

Работы Алишера Навои хранятся как редчайшие экземпляры в мировых фондах. Сегодня в мире науки известно, что подлинные копии произведений Навои хранятся в самых престижных библиотеках и различных фондах мира. Рукописи, связанные с творчеством поэта, в российских библиотеках важны еще и своей древностью. Будет представлена история

поступления произведений Алишера Навои в российские библиотеки и деятельность ученых, впервые описавших их и поведших науке. Будут проанализированы исследования ученых, занимающихся этой деятельностью, имеющей многовековую историю. Ведь эти источники считаются близкими эпохе Навои, их древность важна в науке, и они послужили основой для научных и критических текстов.

**Ключевые слова:** рукописный источник, фонд, библиотека, описание, каталог.

**Ozoda TOJIBOYEVA,**

doctor of philosophy (PhD) in philological sciences,  
associate professor Tashkent state named after  
Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature  
Department of History of Uzbek Literature  
E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

## SOURCES AND DESCRIPTIONS OF ALISHER NAVOI'S CREATION IN RUSSIA

### ANNOTATION

The works of Alisher Navoi are kept as rare specimens in the world's collections. Today in the world of science it is known that authentic copies of Navoi's works are stored in the most prestigious libraries and various funds in the world. Manuscripts related to the poet's work in Russian libraries are also important for their antiquity. The history of the receipt of Alisher Navoi's works in Russian libraries and the activities of scientists who first described them and introduced them to science will be presented. The research of scientists involved in this activity, which has a long history, will be analyzed. After all, these sources are considered close to the Navoi era, their antiquity is important in science, and they served as the basis for scientific and critical texts.

**Key words:** handwritten source, fund, library, description, catalogue.

### Kirish

Dunyodagi har bir xalq o'zining madaniy-ma'naviy, adabiy-estetik tafakkuri mahsuli bo'lgan milliy boyligiga ega va ana shu boyluk bilan dunyo maydonida o'ziga xoslik kasb etadi. Biroq shunday yaratishlar ham borki, bugun ular dunyo kutubxonalari, muzeylari fondining eng nodir manbalari, qimmatbaho boyligi sanaladi. Aynan o'sha boyluklar orqali ham mazkur fondlar qadimiy tarixni o'zida jamlagan makon vazifasini bajarib, bugun dunyo olimlari e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Yaratilgan adabiy meros sirasidan forsiy adabiyot salmoqli qismni tashkil etadi. Uyg'onish davr g'arb adiblari ijodidagi sharqona ohanglarda ana shu adabiy merosning alohida o'rni, ta'siri bor desak yanglishmagan bo'lamiz.

Sharq g'arb uchun ochilmagan qo'riq singari dunyoni qiziqтира boshlagandan buyon fors-tojik adabiyotining buyuklari qatorida Alisher Navoiy asarlari ham teng o'rganila boshlangan. Alisher Navoiy ijodini ulkan Sharq adabiyotiga bog'lab turgan umumiy ruh, poetik topilmalarning favqulodda noyobligi, betakror shakl va mazmun, sermahsul ijod, faoliyat dunyo adabiyotida keng o'rganilishiga asos bo'lgan. Hattoki, sifat va son jihatidan ham dunyo fondlarida boshqa tildagi adabiyotlarga nisbatan ko'p sonda Navoiy asarlari saqlanib kelmoqda. Alisher Navoiy asarlarining adib tiriklik vaqtida ko'chirilgan qadimiy nusxalari, ko'plab asarlarini o'zida jamlagan kulliyotlari bugun Parij, London, Sankt-Peterburg, Istanbul, Eron, Nyu-York, Vena kutubxonalari bezab turibdi. Mazkur fondlarning har biriga qo'lyozmalarning borib qolish tarixi, o'ziga xos yo'li bor. Muhimi, ularni o'rgangan olimlar o'z faoliyatlari orqali sharqshunoslikda muhim natijalarga erishganlar. Fors-tojik, turkiy adabiyot manbalari orqali Sharqni o'rganib, sharqshunos sifatida fan tarixida qolishgan. Garchi, turli nuqtayi nazardan olib borilsa-da, o'rganishga bel bog'lagan olimlarni ham bu sirli, ma'nolarga to'la, ko'p asrlik boy an'analarga ega adabiyot o'ziga maftun etgan. Sharqni o'rgangan H.Vamberi, Martin Xartmann, Pave de Kurteyl, F.Belen va boshqa ko'plab olimlar qiziqib o'rganishlari ortidan fors, turkiy tilli adabiyotni dunyo bo'ylab yoyishga hissa qo'shganlar. Bugun

ular fan tarixida Alisher Navoiy ijodini xorijda ilk bora tadqiq etgan, tarjima qilgan va navoiyshunoslik rivojiga ulush qo'shgan olimlar sifatida e'tirof etiladi.

### **Asosiy qism**

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlarining salmoqli qismi Rossiya fondlarida saqlanadi. Dastlabki paytlarda o'rta asrlar turkiy adabiyotni o'rgangan rus olimlari ham Rossiya fondlaridagi qo'lyozma manbalar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Rossiya kutubxonalaridagi Alisher Navoiy asarlarining o'rganilishi, ularning ilk bora ilmiy tavsiflanishi, kataloglashtirilishi ham XIX asr oxiri, XX asr boshlarida yashab faoliyat yuritgan rus olimlarining faoliyati bilan bog'liq. Bu jarayon Markaziy Osiyoning rus olimlari tomonidan o'rganilishi, xususan, Sankt-Peterburgda Sharqshunoslik institutining faoliyati bilan bog'liq tarzda olib borildi. O'zbek olimlari Rossiya kutubxonalarida saqlanuvchi Alisher Navoiy asarlari manbalari haqida manbashunoslar B.Dorn, S.Volin, A.Semyonov, L.Dmitriyeva, yaqin yillardagi I.Zaysevning bibliografik mohiyatdagi tadqiqotlari orqali tanish. O'zbekiston madaniy merosi agentligi tomonidan tayyorlangan "Rossiya milliy kutubxonasidagi Navoiy qo'lyozmalari to'plamlari tarixidan" nomli kitob-albomda ma'lumot berilishicha, Navoiy qo'lyozmalari ilk marta 1817-yilda Barnauldagi tog' muhandisi Petr Kozmich Frolov (1774-1839) to'plagan kitoblar orqali kelib qolgan. Eng katta qismi esa 1828-yilda Rus-Eron urushida Nikolay I tomonidan o'lja olingan kitoblar bilan qo'shib, Navoiyga tegishli 7 ta qo'lyozma ham xalq kutubxonasiga topshirilgan [Rossiya milliy kutubxonasidagi .. 2021: 73-75].

Dunyo kutubxonalarida imperator, qirollik saroyi kutubxonalarida ishlovchi kutubxonachilarning aksariyati sharqshunos sifatida tanilgan. Sharqni o'rganishni boshlagan tadbirkorlar, tarixchilar, etnograflar ham keyinchalik safar davomida qimmatli kitoblarni sotib olgan, qo'lga kiritgan va kolleksiya to'plab, shaxsiy kutubxonalar tashkil qilgan. Keyinchalik ular to'plagan yirik fondlar o'zlarining nomlari bilan tarixda qolgan. Bugungi kunda Rossiya kutubxonalaridagi Alisher Navoiyga tegishli kitoblarning ko'plab nusxalari Xanikov va Dorn nomi bilan eslanadi va raqamlanadi. N.Xanikovning nomi sayohatlar davomida qimmatli kitoblarni qo'lga kiritgani va ularni Sankt-Peterburg imperator kutubxonasiga sotgani uchun "N.Xanikov fondiga tegishli", deya eslanishi mumkin, B.Dorn esa qo'lyozmalarni maxsus tavsiflagan, kataloglashtirgan olimdir.

### **Nikolay Vladimirovich Xanikov fondining yuzaga kelish tarixi**

Nikolay Vladimirovich Xanikov garchi adabiyotshunos bo'lmasa-da, Sharq adabiyotining nodir nusxalarini to'plagan va Sankt-Peterburg kutubxonalarini boyitgan shaxs hisoblanadi. Shu o'rinda N.Xanikovning katta fondni shakllantirishdagi xizmatlarini eslashdan oldin uning faoliyati haqida ham bir oz to'xtalib o'tsak. Nikolay Vladimirovich Xanikov (1822-1878) yoshligidan sharq tillarini yaxshi o'zlashtirgan. 1839-1840-yillar davlat topshirig'i asosida harbiy guruh bilan Xivaga, 1841-yil amir Nasrulloxonning taklifi bilan tog'-kon qazish va oltin ishlab chiqarish ishlarini o'rgatish maqsadida bir guruh muhandislar bilan Buxoroga kelgan. Turli mutaxassislardan tashkil topgan guruh a'zolari Buxoroni jiddiy o'rganadi. 1942-yil Buxoro safaridan so'ng Osiyo bo'limiga fors tili tarjimoni etib tayinlanadi. Safar haqida "Buxoro xonligi tavsifi" (1843) tadqiqotini yozadi. Bir necha yil Zakavkazyedagi faoliyatidan so'ng 1852-yil Fanlar akademiyasi muxbir a'zoliciga saylanadi.

N.Xanikov 1854-yil Tabrizda bosh konsul bo'lib ish boshlaydi. Uning biz e'tibor berayotgan faoliyati, ya'ni Alisher Navoiy asarlari manbalarini to'plash uchun Xiva, Buxoro sayohatlaridan ko'ra ko'proq Tabrizdagi faoliyati unumli kechgan. Sharq qo'lyozmalarini, xususan, Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalarini Eronda, Xuroson safarida qo'lga kiritgan. Jumladan, "Rossiya milliy kutubxonasidagi Navoiy qo'lyozmalari to'plamlari tarixidan" nomli albom-kitobda ma'lumot berilishicha, Tabrizda bosh konsul bo'lib ishlab yurgan paytlarida ko'plab kitoblarni qo'lga kiritadi. 1858-1859-yillarda Xurosonga ekspeditsiyaga rahbarlik qiladi va Osiyo muzeyiga (hozirgi Rossiya FA Sharq qo'lyozmalari instituti)ga 70 ta qo'lyozma yuboradi. Keyinroq Parijda yashayotganida qolgan qismini ham sotishini aytadi, ammo Fanlar akademiyasida mablag' yetarli bo'lmagani sababli 1864-yili (166 ta) Sankt-Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasi N.Xanikov to'plamini sotib oladi [Rossiya milliy kutubxonasidagi Navoiy qo'lyozmalari to'plamlari tarixidan 2021: 76-77]. Natijada, Sankt-Peterburg fondi ko'plab qimmatbaho kitoblarga ega bo'ladi. Olingan kitoblar esa Xanikov fondi tarzida nomlanib, raqamlanadi.

Bugun biz xuddi shunday holatni dunyoning boshqa kutubxona va fondlarida ham ko‘ramiz. Buyuk Britaniyadagi Oksford universiteti Bodlean kutubxonasida saqlanuvchi Sharqqa oid kitoblarning ko‘pchiligi Elliot nomi bilan nomlanadi. Jon Bardo Elliot (John Bardoe Elliott, 1785-1863) 1800-yilda bosib olingan Hindistonga davlat xizmati bilan borib, faoliyati davomida ko‘plab qo‘lyozmalar sotib oladi, keyinchalik boshqa kolleksionerlarning ham kitoblarini oladi. Kutubxonada unga tegishli kitoblar hozirda Elliot fondi sifatida raqamlanadi. Har holda turli shart-sharoit, imkoniyat natijasida o‘zlashtirilgan bunday kitoblar Yevropa kutubxonalariga qimmatbaho xazina bo‘lib qo‘shilgan. O‘z davrida ular kitoblarning qaysidir davrga kelib bebaho boylik sifatida qadrlanishini bilishgan.

Umuman, N.Xanikov davlat topshirig‘i bilan safarlarga yuborilgan va nodir qo‘lyozmalardan iborat katta kolleksiyani jamlagan olim sifatida tarixda qolgan. (Shaxsan uning jiyani Velyaminov-Zernov ham sharqshunoslikka muhabbat qo‘ygan, Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Abushqa” lug‘atini nashrga tayyorlagan).

N.Xanikov fondida Alisher Navoiyning qimmatli qo‘lyozmalari mavjud. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar:

1. Alisher Navoiy. Kulliyot. Xanikov № 55. 1499-1500-yy. Kulliyotga Alisher Navoiyning 12 ta asari va devonga yozilgan debocha bilan (debocha ham alohida asar sifatida ko‘rsatilgan) qo‘shib jami 13 ta asari kiritilgan. Qo‘lyozma haqida batafsil ma’lumot S.Volin tomonidan keltirilgan. Hamid Sulaymon “Xazoyin ul-maoniy” matnini ko‘chirish, ilmiy-tanqidiy matnini yaratish jaaryonida mazkur nusxani asos qilib olgan [Sulaymon 1956]. Kulliyot Alisher Navoiy tirikligida ko‘chirilgan, Navoiy asarlari matnini tiklash uchun asos bo‘lgan nodir manba sifatida qadrli. Biroq, fond kulliyotning elektron nusxasini tayyorlagani ma’lum emas. Sababi bugun Turkiya, Eron olimlari nashrga tayyorlayotgan Navoiy asarlari nashrlari va qiyosiy matnlarda Sankt-Peterburg nusxasidan foydalanilgani ko‘zga tashlanmaydi.

2. Alisher Navoiy. Devon. № 54. 225 varaq. Xanikov fondi. 16-asrning ikkinchi yarmida ko‘chirilgan.

3. Alisher Navoiy. Kulliyot. № 56. Xanikov fondi. 1230/1815/6-yilda ko‘chirilgan.

Xanikovning faoliyati qaysi maqsadda bo‘lishidan qat’i nazar mazkur nodir manbalarning dunyo bo‘ylab yig‘ilishi va saqlanishida katta hissasi bor. O‘z o‘rnida u to‘plagan nodir kitoblar rus olimlari va boshqa sharqshunoslarning ilmiy faoliyatida asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Ilk marta 16 tomlik Rossiya ensiklopediyasida (1873) Alisher Navoiy haqida ma’lumot bergan, “Turk xrestomatiyasi”ga (1857) Alisher Navoiy asarlaridan parchalar kiritgan I.N.Berezin (1818–1896) ham Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi Osiyo muzeyi va Davlat xalq kutubxonasidagi qo‘lyozmalardan foydalangan [Tojiboyeva 2023: 287- 296]. Rus sharqshunoslarining fors va turkiy tilli adabiyotni o‘rganib, ilmiy tadqiqot yartishlarida mazkur manbalar tayanch vazifasini o‘tagan.

### **Boris Andreevich Dorn tavsiflagan manbalar**

Yana bir Alisher Navoiy asarlarining yonida nomi eslanadigan olim Boris Andreevich Dorndir (Dorn, Johannes Albrecht Bernhard, 1805-1881). B.Dorn asli Germaniyada tug‘ilgan. U o‘z davrining mashhur sharqshunosi, tarixchi, eronshunos, etnograf, semit tillari bo‘yicha mutaxassis, akademik olimidir. Leypsig universitetida falsafa va ilohiyot fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan (1825). 1829-yil Rossiyaga kelib, Xarkov universiteti sharq tillari kafedrasida, 1835-yildan Sankt-Peterburg Osiyo bo‘limida tarix, geografiya, numizmatika fanlaridan dars beradi. Fanlar akademiyasi direktori lavozimiga tayinlanadi (1829). Qo‘lyozma kitoblar, tangalarni kataloglashtiradi, tavsiflaydi. Yevropa va Rossiyada birinchi bo‘lib Afg‘oniston pushtu tilini o‘rganishga asos soladi va pushtu tilidagi badiiy ijod namunalari iborat antologiya tuzadi, pushtu-ingliz tili lug‘atini ishlab chiqadi (1847). 140 dan ortiq nashriy asar muallifi. U 1801-1866-yillar davomida Qozonda nashr etilgan 600 ga yaqin kitoblarning ilk katalogini tuzadi, kitoblar haqida to‘liq tavsif beradi. Qo‘lyozmalarni o‘rganib, tasviflash bo‘yicha katta tajribaga ega bo‘lgan Dorn 1865-yilda “Sobiq Xanikov, hozirgi Kaysarli xalq kutubxonasiga tegishli Sharq qo‘lyozmalari to‘plami”da Navoiy asarlari uchun tuzilgan chig‘atoy-forsiy tildagi “Badoye’ al-lug‘at”, “Badoye’ ul-vasat”, “Kulliyoti Navoiy”, “Devoni Navoiy” qo‘lyozmalarini tavsiflaydi [Dorn 1965]. 1852-yilda esa Sankt-Peterburgdagi Sharq qo‘lyozmalari katalogida Navoiyning 15 dan ortiq qo‘lyozmalarini



tavsif qiladi [Dorn 1852]. U Sulton Ali Mashhadiy va shogirdi Sulton Muhammad Nur ko'chirgan qo'lyozmalarining san'at asari sifatidagi ahamiyatini qayd etadi. Sankt-Peterburgda saqlanadigan "Ilk devon"ning 1465-1466-yillarda Mashhadiy ko'chirgan, yana "Xamsa"ning 1492-1493-yillarda Husayn Boyqaro uchun Mashhadiy ko'chirgan, Mavlono Yoriy oltin hal bilan ziynatlagan, Sulton Ali Marviy muqovalagan noyob nusxasi ham Dorn tomonidan tavsiflangan.

Dorn 1852-yilda tavsif qilgan va "Rossiya milliy kutubxonasidagi Navoiy qo'lyozmalari to'plamlari tarixidan" nomli albom-kitobga suratlari bilan e'lon qilingan eng nodir manbalar quyidagilar:

1. Ilk devon. Dorn № 564. 1465-1466-yy. Sultonali Mashhadiy ko'chirgan. 1829-yil Eron shohi Fotih Ali tomonidan Nikolay I ga berilgan.

2. Xamsa. Dorn № 560. 1492-1493-yy. Sultonali Mashhadiy ko'chirgan.

3. Kulliyot. Dorn № 559. 1521-1522-yy Hirotda ko'chirilgan. Kitobni muhandis Petr Frolov qo'lga kiritgan.

4. Majolis un-nafois. Dorn № 553. 1520-y. Xattot Sultonali Mashhadiy.

5. Devon. Dorn № 563. XVI asrning birinchi yarmi. Xattot Sulton Muhammad Nur.

6. Devon. Dorn № 562. XVI asrning birinchi yarmi.

7. G'aroyib us-sig'ar. Dorn № 651. 1551-1552-yy. 235 varaq.

8. Kulliyot. Dorn № 558. 1592-1596-yillarda Ozarbayjonning Qizilog'och shahrida Nazar Ali Fayziy tomonidan ko'chirilgan. Hamid Sulaymon nashriga asos bo'lgan yana bir nusxa. "Xazoyin ul-maoniy" g'azallari umumiy alifbo tarzida berilgan.

9. Abushqa. Dorn № 594. 1560-yil ko'chirilgan. Ko'chiruvchi Aloiy ibn Muhibbiy ash-Sharif.

Yuqorida aytilganidek, B.Dorn Navoiy asarlarining shu fondga saqlanuvchi 15 ta nusxasini tavsiflagan. Tavsiflarni nemis, ingliz, rus tilida kataloglari bilan ularning mavjudligini ilm ahliga bildirdi. Keyingi davrda S.Volin, Hamid Sulaymon, F.Sulaymonova va manbashunos olimlar Dorn tavsiflaridan foydalanganlar. Mazkur davr ilmidagi keng muomalada bo'lgan ilmiy adabiyotlarga e'tibor berilsa, fan dunyo miqyosida bir-biri uchun ochiq bo'lgani kuzatiladi. Ya'ni, rus, nemis, fransuz, ingliz olimlari bajarilgan ishlardan teng foydalanishgan. Buni har bir izohda ko'rsatilgan kitoblardan ko'rish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, B.Dorn o'z davridagi pushtun tili bo'yicha noyob mutaxassis bo'lgan. Tabiiyki, bu tilli xalq Afg'onistonda ham yashaydi. Ko'p tilli olimning Qozonda nashr etilgan 600 ga yaqin kitobning katalogini tuzgani, yana boshqa fondlardagi kitoblarni tavsiflagani fundamental ishdir. Sababi har bir kitob tavsifida yozilgan kam so'z ortida katta mehnat yotadi. Kitob haqida ma'lumot berayotgan olim asar tuzilishi, janriy tarkibi, ko'chirilgan joyi, adibning o'zi haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi uchun qo'lyozmani va yondosh manbalarni qunt bilan o'rganadi va aniq ma'lumotni tavsifda qayd etadi. Shu ma'noda katalog tuzuvchi olim manbashunos sifatida matnshunoslarga dastlabki ma'lumotni taqdim etadi. B.Dorn qolaversa, mazkur kataloglarni xorijiy tillarda ham yozib ommalashtirishga va sharqshunoslikning xalqaro miqyosda olib borilishiga keng hissa qo'shgan.

### **S.Volin va A.Semyonov tavsiflarining ilmiy qimmati**

Asli Germaniyada tug'ilgan, Sankt-Peterburgda mashhur sharqshunoslar qo'lida tahsil olgan, V.Bartolning shogirdi, sharqshunos, turkolog olim S.L.Volin B.Dorndan keyingi Alisher Navoiy asarlarining eng mukammal tavsifini tuzgan olimdir. U Toshkentda ham bir necha yillar ishlagan. Uning 1946-yil e'lon qilingan "Leningrad kutubxonalariidagi Navoiy qo'lyozmalari haqida" nomli bibliografik tavsifi o'z davrida eng muhim tadqiqot bo'lib, keyingi davr olimlarining izlanish olib borishlarida tayanch manba vazifasini o'tagan [Volin 1946: 203-235]. Olim Sankt-Peterburg fondlaridagi mavjud 125 ta qo'lyozma asarni tavsif qiladi. Xususan, unda ta'riflangan 55-raqamli kulliyot fanda qadrlanadi. Hamid Sulaymon nashriga asos bo'lgan yana bir nusxa – Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasi, hozirda Rossiya Milliy kutubxonasidagi Dorn 558-raqamli kulliyot qo'lyozma ham Volin tomonidan tavsiflangan. 55-raqamli kulliyot Xanikov, 558-raqamli kulliyot Dorn fondiga tegishli. Umuman, dastlabki ishlar sifatida Volinning mazkur tavsifiy maqolasi, yana turk olimi Ogah Sirri Lavandning "Turkiya kutubxonalariidagi Navoiy qo'lyozmalari" (1958) nomli tavsiflaridagi har bitta kitobga berilgan



batafsil ma'lumot kichik bir maqoladek e'tirof etiladi. Ya'ni, olimlar har bitta kitobni tavsiflashda asarning mazmuni, xususiyati, janri borasida ham to'liq ma'lumot berib borgan. Mazkur aniqlik keyingi izlanuvchilar uchun qulaylik tug'dirishi bilan ahamiyatli. Volin tavsifi borasida adabiyotshunoslar tomonidan batafsil ma'lumot berilgan, bugungi kunga qadar bo'lgan olimlar mazkur tavsifga tayanadilar. Maqola 1955-yilda turk olimi Rejema Uygun tomonidan turk tiliga tarjima qilingan [Uygun 1955: 99-141].

Alisher Navoiy asarlarining O'zbekistondagi manbalarini tavsiflab, ilk bora kataloglashtirishga asos solgan olimlardan biri – **Aleksandr Aleksandrovich Semyonov** (1873-1958). Uning ko'p qirrali faoliyati adabiyotlarda yoritilgan [Tojiboyeva 2022: 185-194]. Olim Buxoro fondi, Toshkentdagi kutubxonalardagi fondlarni tavsiflagan. Bu asosida uning “Каталог рукописей исторического отдела Бухарской Центральной Библиотеки” (1925), “Описание рукописей произведений Навои, хранящихся в Государственной публичной библиотеке УзССР”, “Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем” (1940), “Описание рукописей произведений Навои, хранящихся в Государственной публичной библиотеке УзССР” (1940) nomli bibliografik kitoblari ilk ishlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, 1940-yil Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida tayyorlangan “Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем” (Alisher Navoiy asarlari va u haqidagi adabiyotlar bibliografik ko'rsatkichiga doir manbalar) kitobi o'zbek adabiyotidagi birinchi bibliografiyadir [Semyonov 1940]. Kitobdan xorijdagi ilk navoiyshunoslik, Toshkent, Xiva, Buxoro, Istanbul toshbosma matbaalarida nashr etilgan Navoiy asarlari nashrlari, qo'lyozma manbalarini tavsiflagan. A.A.Semyonov asos solgan va olti jildini tayyorlashda bosh bo'lgan “Sharq qo'lyozmalari to'plami” (SVR) bugun sharqshunoslarning asosiy qo'llanmasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Yuqoridagi olimlardan farqli ravishda A.Semyonov Toshkent va Dushanbeda yashagan va faoliyat olib borgan. Toshkentdagi Navoiy asarlari manbalarini tavsiflagan.

### **Zamonaviy rus manbashunosligida Navoiy asarlari tadqiqi**

Alisher Navoiy asarlarining Rossiya kutubxonalaridagi manbalarini borasida ma'lumot bergan olimlardan yana L.Dmitriyeva [Dmitriyeva 1980], I.Zaysevni [Zaysev 2016] ham ko'rsatish mumkin. Filologiya fanlari nomzodi Lyudmila Vasilyevna Dmitriyeva (1924-1997) faoliyati davomida manbashunoslik, bibliografiya ishlari bilan shug'ullangan. Jumladan, “Каталог тюркских рукописей института востоковедения Российской академии наук” (Rossiya Fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti turkiy qo'lyozmalar katalogi) kitobi olima tomonidan tuzilgan. Kitobdagi ma'lumotlar 3 jildlik “Sharqshunoslik institutidagi turkiy qo'lyozmalar tavsifi”ning (1980) 3-jildiga ham kiritilgan. Kitobda “Abushqa”ning 3 ta qo'lyozma nusxasi, “Devoni Navoiy”, “G'azaliyoti Navoiy”, terma devonlari va yakka devonlaridan iborat 31 ta (№1073-1104) nusxasi ko'chirilgan yili, joyi, xattoti va janriy tarkibi bilan to'liq tavsif qilingan. “Xamsa”ning birga va alohida 56 ta (№1105-1162), “Lison ut-tayr”ning 5 ta (№1163-1167) nusxasi haqida ma'lumot berilgan. “Siroj ul-muslimin” tavsifida muallifi ko'rsatilmagan. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”ning 1 ta, “Holoti Pahlavon Muhammad al-Kushtigir”ning 1 ta, “Majolis un-nafois”ning 3 ta qo'lyozmasi tasnif va tavsif qilingan.

Alisher Navoiy tavalludining 575 yilligi arafasida tarix fanlari doktori I.V.Zaysev tomonidan “Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в Московских собраниях” nomli tuzilgan katalog-albomda adibning Moskva davlat kutubxonalari, universitet, muzeylarida saqlanayotgan XVIII-XIX asrga oid 14 ta qo'lyozma, XIX asr oxiri XX asr boshlariga doir 12 ta toshbosma nusxasi sahifalaridan namunalar berilgan [Zaysev 2016].

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Rossiyadagi fondlarning shakllanishida boshqa rus olimlarining ham hissasi katta. Ularning shaxsiy arxivlardagi kitoblari ham keyinchalik fondga topshirilgan. O'sha davrdagi turkolog, sharqshunoslarning ilmiy tadqiqot olib borishlari uchun manba bo'lib xizmat qilgan. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida ilk bora Alisher Navoiy asarlarini kataloglashtirgan, ilmiy tavsifini tuzgan olimlar bevosita navoiyshunoslik rivojiga hissa qo'shganlar. Ularning har bitta asar bilan tanishib chiqib, janri, xos xususiyatiga ko'ra bergan ma'lumotlari masofadan turib o'sha kitob

bilan tanishish imkoniyatini bergan. Qolaversa, bu faoliyat bilan ilmiy tizimlashtirishga asos solganlar. Bugun sharqshunoslik, navoiyshunoslikda ilmiy tadqiqot olib borayotgan har bir tadqiqotchi mazkur ma'lumotlarga tayanadi. Kelgusida mazkur qimmatli nusxalarning fotonusxalari asosida yurtimiz fondlarida qo'shimcha nusxalarini tayyorlash ilmiy tadqiqotlar samaradorligiga xizmat qilishi aniq.

### Iqtiboslar/Сноски/References

1. Березин И.Н. Турецкая хрестоматия. Том I. Отделение джагатайское или восточное. – Казань: Типография университета, 1857. – 375 с.
2. Dorn B. Catalogue des manuscrits et xylographes orientaux de la Bibliothèque impériale publique de St.-Petersbourg. – St.-Petersbourg, 1852.
3. Die vordem Chanykov'sche, jetzt der Kaiserl. öffentlichen Bibliothek zugehörige Sammlung von morgenländischen Handschriften, von B. Dorn // Mélanges asiatiques. Tome V. Livraison 2 et 3. St.-Petersbourg. 1865. – P. 221-313.
4. [https://ru.wikipedia.org/wiki/Дорн,\\_Борис\\_Андреевич](https://ru.wikipedia.org/wiki/Дорн,_Борис_Андреевич)
5. Дмитриева Л. В. Каталог тюркских рукописей Института востоковедения Российской академии наук / Л.В. Дмитриева; [Отв. ред. О.Ф. Акимускин]. – М.: Вост. лит., 2002. – 616 с.
6. Мирзаев, И. К., Нурова, Г. Т. Изучение жизни и творчества Алишера Навои в России. – Минск: Альфа-книга, 2022. – 224 с.
7. Васильева О.В., Шилов Л.А. Академик Б.А. Дорн — библиотекарь Императорской Публичной библиотеки // Письменные памятники Востока, 2(3), 2005. – С. 16–25.
8. Волин С.Л. Описание рукописей произведений Навои в ленинградских собраниях // Алишер Навои. Сборник статей под редакцией чл.-корр. АН УзССР А.К. Боровкова. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1946. – С. 203-235.
9. Volin, S. L. (Çev. Rasime Uygun), 1955. 'Leningrad Kitaplıklarındaki Nevaî Yazmaları Hakkında'. TDAY-Belleten 99-141. – Ankara.
10. Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Навои в московских собраниях. Каталог. / Составитель и автор описания рукописей и литографий – доктор исторических наук И.В. Зайцев. – М.: Центр книги Рудомино, 2016. – 208 с.
11. Рукописи Алишера Навои в собраниях Казани. Каталог к 580-летию великого поэта. Автор-составитель И.Зайцев. – Москва–Казань: Юлис, 2021.
12. Россия миллий кутубхонасидаги Навоий қўлёзмалари тўпламлари тарихидан. Ўзбекистон маданият мероси. Китоб-альбом. – Тошкент: Silk Road Media, 2021.
13. Семенов А. А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. – Ташкент, 1940. – 40 бет.
14. Сулаймон, Ҳамид. 1959. “Хазойин ул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари”. Сўзбоши, 5-37. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. – Тошкент: ЎзФА нашриёти.
15. Ханьков Николай Владимирович - ориенталист и писатель по этнографии — OurBaku
16. Эркинов Афтондил. Алишер Навоий асарларининг бутунжаҳон қўлёзмаларига оид айрим маълумотлар: Россия фондлари. Алишер Навоий халқаро журнали, 2022. – Б. 94-103.
17. Tojiboeva O. T. Aleksandr Semyonov – navoiyshunos, bibliograf olim // O'zbekistonda xorijiy tillar, 2022. – № 2 (43). – B. 185-194.
18. Tojiboyeva O. T. İlk xrestomatiyalarda Alisher Navoiy ijodidan parchalar.// O'zbekistonda xorijiy tillar. – 2023. – № 6 (53). – B. 287- 296.

# ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

4-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ  
ТОМ-4, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY  
VOLUME-4, ISSUE-1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000